

**SURXONDARYO VILOYATIDA DAM OLISH VA TABOBAT TURIZMINING  
ISTIQBOLLARI**

**Turdiyev Madiyor Mamamazarovich**

*Alfraganus universiteti o'qituvchisi*

**Norqulova Durdon Sherli qizi**

*Alfraganus universiteti talabasi,*

**Email: turdiyevmadiyor@gmail.com**

Durdona1612@gmail.com

**Annotatsiya.** Bu maqolada Surxondaryo viloyati hududi, geografiyasi, xaritasi va diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumotlar beriladi. Hali O'zbekistonga kelmaganlar, kelishni niyat qilib yurganlar, nafaqat chet elliklar balki O'zbekistonliklar ham bu maqoladan Surxondaryo haqida eng kerakli ma'lumotlarni o'rGANIB, borayotgan joyini avvaldan aniqlab olishlari uchun ayni muddao.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о территории, географии, карте и достопримечательностях Сурхандарьинской области. Это возможность для тех, кто еще не приехал в Узбекистан, тех, кто собирается приехать, не только иностранцев, но и узбеков, узнать из этой статьи самую необходимую информацию о Сурхандарье и заранее определиться с пунктом назначения.

**Annotation.** This article provides information about the territory, geography, map and attractions of Surkhandarya region. This is an opportunity for those who have not yet come to Uzbekistan, those who intend to come, not only foreigners, but also Uzbeks, to learn the most necessary information about Surkhandarya from this article and to determine their destination in advance.

**Kalit so'zlar:** turizm, sayohat, turistik resurslar, ommaviy sayohat, zamonaviy turizm, turistik xizmatlar

**Ключевые слова:** туризм, путешествия, туристические ресурсы, общественные поездки, современный туризм, туристические услуги.

**Keywords:** tourism, travel, tourist resources, public travel, modern tourism, tourist services.

Surxondaryo viloyati tog‘ va ekoturizm bilan ajralib turadi. Mintaqada tabiiy landshaftning ajoyib go‘zalligini namoyon qiladigan g‘orlar, massivlar va daralarni ko‘rish mumkin. Bu joylar sayyoohlari va sarguzasht izlovchilarning katta e’tiborini tortadi.

Bu yerda uzoq o‘tmish yodgorliklari bilan tanishishingiz mumkin. Shu jumladan ochiq osmon ostidagi muzeylar, buddaviylar ibodatxonalar, qadimgi aholi punktlari xarobalari, qadimiy qal’alar, ibodat joylarini ko‘rsatib o‘tish joiz.

Surxondaryo vodiysi yangi madaniyat rivojining sarchashmasi bo‘lgan. U tarixga taniqli shoirlar, dinshunoslar, islom dini arboblari, faylasuflarning nomlarini berdi. Ularning sharofati bilan o‘rta asrlarning ajoyib me’moriy yodgorliklari paydo bo‘ldi. Ushbu yodgorliklarning ahamiyati butun Islom olami uchun muhim.

Viloyatning eng qadimiy shahri va markazi bo‘lgan Termizda va uning atrofida zardushtiylar, nestorianlar, buddistlar kabi turli xalqlarning shaharlari va qal’alarining xarobalari, me’morchilik va arxeologiya obidalari, shuningdek islom me’morchiligi yodgorliklari saqlanib qolgan. Termizdan uncha uzoq bo‘lmagan joyda esa, fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan.

Surxondaryo viloyati – O‘zbekistonning eng janubiy mintaqasidir. U shimolda Hisor tizmasi, sharqda Bobotog‘, g‘arbda Ko‘hitang va Boysun tog‘lari etaklarini, janubda esa Amudaryoni egallaydi.

**Diqqatga sazovor joylar:** **SANGARDAK SHARSHARASI.** Sangardak darasidan kirib kelaverishda, sharsharaning tovushi ancha uzoqdan eshitila boshlaydi. Unga etib borganingizdan so‘ng esa, ushbu joylar tabiatining barcha buyukligi va go’zalligini his qilasiz. Sharshara, shunday g‘aroyib xususiyatga ega. Sharshara, tog‘ daryosidan hosil bo‘lmaydi, u g‘orlar, karst daryolaridan kelib chiqadi deb hisoblashadi. Pastga oqib tushayotgan suv, qoyalar va suv o‘simpliklari orasidan 20 metrlik balandlikdan pog‘onali sharshara singari oqib tushadi.

Sharsharalar, doim odamlarning diqqatini jalb qilib kelgan, ularni tabiatning mo‘jizasi, oddiy odamlar uchun ilohiy sovg‘a deb hisoblashgan, shuning uchun ham, Sangardak yaqinida, o‘z afsonasiga ega bo‘lgan ziyoratgoh bor. Sarosiyoning Sangardak deb ataluvchi go‘zal va shiddatli, betakror oqimi, hozirgacha mamlakatimiz bo‘ylab minglab sayyoohlarni o‘ziga jalb qilmoqda.

Bu erdagagi eng manzarali joylarda turli xil o‘simplik va hayvonot dunyosi vakillarini uchratis mumkin. Tog‘ hududida jayron, bo‘ri, tulki, quyon, qor qoplonlari va hatto malla ayiq ham yashaydi; tabiatda, archa, pista, bodom, yong‘oq, olma daraxti, zirk, na’matak va boshqa o‘simpliklar keng tarqalgan.

Ikki tog‘ tizmasi orasidagi jarliklarda “Xondiza” konchilar qishlog‘i joylashgan bo‘lib, uning aholisi ko‘mir qazib olish bilan shug‘ullangan. Undan atigi 30 km. masofada, go‘zal sharshara joylashgan. Mahalliy aholi orasida tabiatning ushbu diqqatga sazovor joyi haqida ko‘p afsona va hikoyalar yuradi. Aytishlaricha, bu sharsharani ko‘rish uchun qadimgi yunonlar, arablar va butun Movorounnahrning hukmdorlari bu yerga kelishgan.

Sangardak darasidan kirib kelaverishda, sharsharaning tovushi ancha uzoqdan eshitila boshlaydi. Unga etib borganingizdan so‘ng esa, ushbu joylar tabiatining barcha buyukligi va go’zalligini his qilasiz. Sharshara, shunday g‘aroyib xususiyatga ega. Sharshara, tog‘ daryosidan hosil bo‘lmaydi, u g‘orlar, karst daryolaridan kelib chiqadi deb hisoblashadi. Pastga oqib tushayotgan suv, qoyalar va suv o‘simpliklari orasidan 20 metrlik balandlikdan pog‘onali sharshara singari oqib tushadi. Sharsharalar, doim

odamlarning diqqatini jalg qilib kelgan, ularni tabiatning mo‘jizasi, oddiy odamlar uchun ilohiy sovg‘a deb hisoblashgan, shuning uchun ham, Sangardak yaqinida, o‘z afsonasiga ega bo‘lgan ziyoratgoh bor. Sarosiyoning Sangardak deb ataluvchi go‘zal va shiddatli, betakror oqimi, hozirgacha mamlakatimiz bo‘ylab minglab sayyoohlarni o‘ziga jalg qilmoqda.

**OMONXONA.** Surxondaryo viloyatidagi Omonxona qishlog`i Boysun tuman markazidan 16 kilometr uzoqlikda joylashgan. Uning atrofi bir-biri bilan yelka tirashgan qir-adirliklar bilan o`ralgan. Tabiat so`lim. Tog`dan esib turadigan shabada kishi qalbiga orom baxsh etadi. Bu yerda ming nafardan ortiqroq aholi, 150 xo`jalikda umrguzaronlik qilishadi.

Qishloq chag`atlar o`ngirida joylashgan. Uning zamini toba, ya`ni yirik yassi toshlar bilan qoplangan. Ana shu qattiq jismni yorib buloqlar ko`z ochgan. Bu buyuk Yaratguvchining qudrati emasmi? Chashmaning suvi magniy-sulfad va boshqa turli foydali mineral moddalarga boyligi bilan dunyoga mashxur shifobaxsh ma`danli suvlardanda afzalroq ekanligi tan olingan. Suv kishi tanasidagi o`tni surish, uni suyultirish, peshobni haydash, qabziyatni bo`shatish, qon bosimini pasaytirish kabi turli xil xastaliklarni davolashga ijobiy ta`sir etadi. Omonxona suvini iste`mol qilgan kishida oshqozon-ichak, sariq va jigar serrozi kabi o`tkir yuqumli kasalliklar uchramaydi.

Omonxona suvining shifobaxsh xususiyati yurtboshimizning ham nazariga tushdi. Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Omonxona balneologik davolash maskani barpo etildi. Hozirgi kunda shifoxona "O`zbekiston temir yo`llari" DUK tasarrufiga olingan bv bo`lib, kompaniya temir yo`lchilari ham dam olishadi, davolanishadi, sog`lig`ini mustahkamlashadi. Buning uchun sog`lomashtirish maskanida barcha sharoitlar bor.

- Bu yerda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, - deydi sihatgoh direktori Baxtiyor Jo`rayev. - Yuz o`rinli qo`sh qavatli yangi imorat qurildi. Har bir xonada yumshoq gilamlar to`shalgan. Divan krovat, shkaf, stol va kursilar o`rnatalgan. Obodonlashtirish ishlari ham namunali tashkil etildi. Hamma joy rango-rang gulzor, ko`kalamzor. Manzarali daraxtlarni parvarish qilishga alohida e`tibor qaratilayapti. Shifoxona baland tepalik bag`rida joylashganligi bois bemorlar pillapoyalardan iborat beton yo`lakchalardan yuqoriga ko`tarilib boradi. Atrof ko`rkam qiyofa kasb etgan. Musaffo tog` havosidan bahra olayotgan odamlarning kayfi chog`, ruhi tetik. Darvoqe, dardiga darmon izlagan kishilar uchun manzilining yaqin uzog`i bo`lmaydi. Buni sihatgohda mamlakatimizning shimoliy mintaqasi Qoraqalpog`iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlaridan har kuni o`nlab bemorlar qabul qilinayotganligi misolida ham bilish mumkin.

Yana bir gap, ilgari davolash maskani yilning may, iyun, iyul, avgust, sentyabr oktyabr oylari davomida olib borilardi. Qish faslida esa bemorlarni qabul qilishning iloji yo`q edi. Buning sababi bor. Birinchidan suv sovuq, xonalarni isitish yo`lga

6 –TOM 2 – SON / 2023 - YIL / 15 - FEVRAL

qo`yilmagandi. Boz ustiga oromgoh binolari tog` yon bag`rida joylashganligi sababli mavsumda ming nafarga yaqin bemorni qabul qilish imkoniyatiga ega edi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

<https://www.uzbekistan.travel/uz/r/surxondaryo-viloyati/>

<https://www.google.com/search?q=sangardak+sharsharasi&oq=SANGA&aqs=chrome.2.69i57j46i512j0i512j46i512j0i512l3j0i10i512j0i512.6274j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8>

[https://www.google.com/search?gs\\_ssp=eJzj4tVP1zc0TLcoT0kpMzA2YLRSNagwTjNJTEyMTFPSks0MrNMsjKosDQwSjQyNk42M7ZIBFJGXIL5ufl5Ffl5iQopibkKTmZxRkKuYnF2Yl5mQDEqxj7&q=omonxona+dam+olish+maskani&oq=OMONXONA+&aqs=chrome.1.69i57j46i175i199i512j0i512l4j69i60.11483j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?gs_ssp=eJzj4tVP1zc0TLcoT0kpMzA2YLRSNagwTjNJTEyMTFPSks0MrNMsjKosDQwSjQyNk42M7ZIBFJGXIL5ufl5Ffl5iQopibkKTmZxRkKuYnF2Yl5mQDEqxj7&q=omonxona+dam+olish+maskani&oq=OMONXONA+&aqs=chrome.1.69i57j46i175i199i512j0i512l4j69i60.11483j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8)

<http://geografiya.uz/torizm/11587-omonxonaning-mojizakor-bulogi.html>